TAVFIQ HAKIM IJODI VA DRAMATURGIYASI

Usmonjon Ortig'aliyev
Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi
4- kurs talabasi
Ilmiy rahbar:
S. Chimpo'latova
Tillar-1 kaferdasi o'qituvchisi, Oriental universiteti

Qabul qilindi: 09.06.2026
Ko'rib chiqildi: 10.06.2026
Tasdiqlandi: 11.06.2026

Tavfiq Hakim (1898-1986) arab Sharqining atoqli yozuvchilari Mahmud Teymurlar avlodiga mansub adib[1]. Uning eng mashhur asarlari vatanida 6- 8 martadan nashr qilinib, arab maktablarida o'rganiladi, kino va televidenieda ekranlashtiriladi, dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Tavfiq Hakim Iskandariyada tug'ildi. Otasi ma'lumoti bo'yicha yurist bo'lib, Dilijon qishlog'ida yirik ferma egasi edi. O'rta maktabni tugatgach, Tavfiq Hakim Qohiradagi Oliy 47 Huquq maktabiga kiradi. Ammo yuristlik kasbi ota-ona istagi bilan tanlangani uchun uni qiziqtirmadi. Chunki unda adabiy salohiyat kurtak yozayotgan edi. Bu yosh yigitning bo'lg'usi faoliyatini belgiladi. 1924 yilda Sorbonna dorilfununining adliya fakultetiga o'qishga qabul etiladi. Parijda u to'rt yil davomida Yevropa adabiyoti va san'ati, muzikasini o'rganadi, teatr, konsertlarga boradi. 1928 yilda Misrga qaytadi va 1934 yilgacha viloyat prokuraturasi organlarida ishlaydi[2].

Tavfiq Hakim XX asr arab dramaturgiyasining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u arab teatr san'atida konsepsiyasini shakllantirgan ijodkor sifatida alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi o'z dramalarida oddiy voqealar tasviridan ko'ra inson tafakkuri, falsafiy mushohada va ijtimoiy muammolarni markazga qo'yadi. Shu sababli uning asarlari nafaqat sahna uchun yaratilgan dramatik matn, balki chuqur ma'naviy va falsafiy mazmunga ega badiiy-fikr mahsuli sifatida ham qadrlanadi.

Tavfiq Hakim dramaturgiyasida asosiy e'tibor tashqi harakat va voqealarga emas, balki g'oyalar to'qnashuviga qaratiladi. Adibning qahramonlari ko'pincha hayot, erkinlik, adolat, vaqt, haqiqat va inson taqdiri kabi murakkab masalalar ustida mushohada yuritadilar. Shu jihatdan uning dramalari deb ataladi. Muallif uchun drama bu faqat tomoshabinni ko'ngilochar syujet bilan jalb qilish emas, balki uni fikrlashga, hayotiy haqiqatlar ustida mulohaza yuritishga undash vositasidir.

[1] Ziyavuddinova. M. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O'quv qo'llanma.T.., 2021;-B.46.
[2] Юнусов К. О драматургии Тауфика аль-Хакима. М., 1976 -стр. 127.

Hakimning pesalari Qohira, Damashq, London, Parij, Stokholm va dunyoning boshqa shaharlari sahnalarida o‘ynaladi. Parijdagi o‘ta zavqli, jo‘shqin hayotdan keyin yosh yozuvchi uzoq, qoloq arab qishlog‘iga tushib qoladi. U yerda yosh yigitni xaqiqiy turmush o‘zining butun dahshatlari bilan kutib oladi. Tergovchi bo‘lib ishlash unga mamlakatidagi haqiqiy holatni ko‘rishga yordam berdi, yurtda feodal munosabatlar, dahshatli qashshoqlik, johillik, o‘zboshimchalik hukmronligini bildi. Ana shu viloyatdagi hayoti, boy shaxsiy kuzatishlari asosida Tavfiq Hakim o‘zining mashhur, «Viloyatdagi tergovchining xotiralari» (1937) asarini yaratdi. 1943 yil yuristlik faoliyatidan voz kechib, professional yozuvchi bo‘ldi. Tavfiq Hakim Misrning eng ko‘p va eng huquqsiz sinfi-fallohlar hayoti bilan tanishdi. Tavfiq Hakim davlat ishi va adabiy faoliyatni mohirona qo‘shib olib borardi. 1956 yilda u san’at va adabiyot ishlari bo‘yicha Oliy Kengashning a’zosi etib saylanadi. O‘sha yili Misrning YuNESKOdagi doimiy vakili etib tayinlanadi. 1977 yil Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilari Assotsiatsiyasi uni sermahsul adabiy faoliyati uchun Nilufar mukofoti bilan taqdirlaydi.

Tavfiq Hakim keng qamrovli adib. Uning asarlari mavzusi va janrlari g‘oyat rangbarang. Yozuvchining qalamiga mansub dramalar, romanlar, qissalar, adabiyot nazariyasiga oid ishlar, adabiy tanqidiy maqolalar, shuningdek, komediyalar, novellalar, esse, rivoyatlar, latifalar va aforizmlar arab Sharqida ma’lum va mashhur. Uning asarlari rusiyzabon kitobxonlarga yaxshi tanish: «Viloyatdagi tergovchi xotiralari» qissasi, «Ruhning qaytishi», «Til biriktirish», «Sof muhabbat» komediyalari, qator hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan[3].

XX asrning 20-30-yillari Misrda realistik yo‘nalishidagi adabiyotning gurkirab rivojlangan davri bo‘ldi. Bu taraqqiyot Yaqin Sharq mamlakatlaridagi milliy – ozodlik harakatining o‘sishi bilan birga bordi. Milliy harakat ishchilar, dexqonlar, burjuaziya, ziyolilar, talabalarning keng qatlamlarini qamrab oldi.

1919 yilda Misrda inglizlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Misr xalqining zulmga qarshi qaratilgan ana shu chiqishi ta’siri ostida Tavfiq Hakim «Ruhning qaytishi»[4] romanini yaratdi. Ushbu avtobiografik asar dastlab fransuz tilida yozildi, keyin arab tiliga tarjima qilinib, 1933 yilda 2 qismda e’lon qilindi[5]. Muhsin degan bola qishloqdan poytaxtga keladi va qarindoshlari-amakilari oilasiga joylashadi. Bu obraz ko‘p jihatdan avtobiografik xislatga ega. Romanda, asosan, ana shu katta oila a’zolari orasidagi murakkab munosabatlar, o‘spirin Muhsin va uning yoshgina amakilarining qo‘shni qizga bo‘lgan ilk yashirin muhabbatlari tasviriga bag‘ishlangan. Bu davrda poytaxtda inqilobiy voqealar sodir bo‘ladi, aka-ukalar va jiyanlar bu kurashga qo‘shiladilar. Roman qahramonlarning inqilobiy varaqalar tarqatganlari uchun hibsga olinishi bilan yakunlanadi. Ammo asar xalqning tezda g‘alaba qilishi va mustaqillikka erishishiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan. Asarda

[3] M.H.Akbarova.Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX asrlar).T.:2009.-B.49.

[4] Tavfiq Hakim: A Reader's Guide William M. Hutchins, *Tavfiq Hakim: A Reader's Guide* (London: Lynne Rienner Publishers, 2003), pp. 283–288.

[5] https://www.encyclopedia.com/international/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/hakim-tawfiq-al-1898-1987

qishloq tasviri, fallohlar hayotiga ko‘p e’tibor berilgan. muallif ularga mehr va xayrihohlik bilan munosabatda bo‘ladi, ba’zida ularni ideallashtiradi ham. Yozuvchining fallohlarga qiziqishi tasodifiy emas.

U 20-yillarda «Misr misrliklarga» shiorini o‘rtaga tashlagan Misr liberal burjuaziyasi orasida hukmron bo‘lgan kayfiyatni ifodalaydi. Xaqiqiy misrliklar deganda avvalo fallohlar - qadimgi Misr dexqonlarining avlodlari tushunilardi. «Viloyatdagi tergovchining xotiralari» (1937) kundalik shaklida yozilgan, 10 bobda tergovchining 10 kunlik hayoti, no’malum fallohning sirli o‘ldirilishi, qotilni topishga uringan tergovchi haqida hikoya qilinadi[6]. Sehrli qotillik tarixi va uni tergov qilish chekka Misr qishlog‘idagi zerikarli, g‘amgin hayotni aks ettiruvchi qator lavhalarni bog‘lash uchun ip vazifasini o‘taydi. Romanda adib misrliklarga qadimgi zamonga xos bo‘lgan birdamlik ruhining qaytishi haqida yozadi.

XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida romantizm arab she’riyatida mustahkam mavqeni egalladi, 20-yillardan prozaga kira boshladi. Hakimning pesalari dramaturgiyada ham romantizmga o‘tishi uchun zamin tayyorladi. G‘arb madaniyatini o‘zlashtirishga chaqirar ekan, yozuvchi ayni chog‘da G‘arb madaniyati Sharq madaniyatini yutib yuborishiga yo‘l qo‘ymaslikni talab etadi, «o‘z daraxtlarini chet el o‘simliklari to‘sib qo‘ymasligini» yoki «ishqilib, biz o‘zgalar ovozi bilan baqiradigan to‘tiga aylanmasak bo‘ldi», degan edi. Yosh dramaturgga hammaning diqqatini tortgan birinchi pesa «G‘orda uxlayotganlar» (1933) dramasi bo‘ldi. Uning muvaffaqiyati shu qadar katta bo‘ldiki, o‘sha yiliyoq qayta nashr etildi, bir yildan so‘ng esa, Qohirada endigina ochilgan milliy teatrda sahnalashtirildi. Drama syujeti qadimgi hind afsonasi «Uxlayotgan yetti o‘smir»dan olingan.

Yozuvchining konsepsiyasi Sharq va G‘arb teatr an’analarining uyg‘unlashuvi asosida shakllangan bo’lib, arab teatrida yangi intellektual yo’nalishning paydo bo’lishiga zamin yaratdi. Natijada Tavfiq Hakim dramaturgiyasi inson tafakkuri va ma’naviy izlanishlarini aks ettiruvchi falsafiy teatr namunasi sifatida e’tirof etildi.

Demak, Tavfiq Hakim orqali arab dramaturgiyasining badiiy va falsafiy imkoniyatlarini kengaytirib, teatr san’atining jamiyat va inson hayotidagi ma’naviy ahamiyatini yuksak darajada namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tavfiq Hakim: A Reader's Guide William M. Hutchins, *Tavfiq Hakim: A Reader’s Guide* (London: Lynne Rienner Publishers, 2003).
2. M.H.Akbarova.Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX asrlar).T.:2009.
3. Ziyavuddinova. M. O‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti.
4. O‘quv qo‘llanma.T.., 2021.
5. Юнусов К. О драматургии Тауфика аль-Хакима. М., 1976.

[6] https://www.literaturepadi.com.ng/2025/09/25/tawfiq-al-hakim-life-works-and-literary-contributions/